

**ERTAKLARDAGI O'GAY SINGILLARNING QIYOSIY TAHLILI
("ZUMRAD VA QIMMAT" VA "CINDRELLA" ERTAKLAR
TARJIMALARI MISOLIDA)**

Yaqubova Yulduz Abduolim qizi

1- kurs magistranti, Oriental Unversiteti, O'zbekiston

Annatsiya: Ushbu maqolada Ingliz va O'zbek xalqi ijodiga mansub "Zumrad va Qimmat" va "Cindrella" ertakalarining salbiy qahramonlari bo'lmish o'gay opa-singillar obrazlarining linguamadaniy tavsifi taxlil qilingan. Ikki noqardosh xalqning madaniyatining o'zaro o'xshash va farqli tamonlarning bayoni, har birining qadraytlari va urf-odatlarini, salbiy qahramonlarning yosh avlod ongi va salohiyati ko'lamidagi ta'siri haqida to'xtalib o'tildi. Ma'lum bir hikoya yoki ertak o'qiyotgan va eshitayotgan shaxs ongida ma'naviy-madaniy dunyoqarash shakllanib boradi.

Kalit so'zlar: Ertak va hikoyalar, salbiy qahramonlar, o'gay opa-singillar, urf-odatlar, madaniyat va an'analar.

Kirish qismi:

Ma'lum bir Millat yoki Xalq ertaklari tavsifida til va madaniyat tushunchalarining o'rnini beqiyos. Gyote: "Bir millat tilini o'rganishdan oldin usha xalqning madaniyatini o'rgan." Olim fikri e'tirozsiz, chunki madaniyatning verballashuvi til orqali amalga oshiriladi. Bu esa ikki xalq ertaklari lisoniy tavsifida ayrim bir nomutanosibliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Aynan shu nomutanosibliklar yechimini xalqlar madaniyatini chuqurroq o'rganish orqali erishiladi. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim tizimiga butunlay yod bo'la boshlagan pant-nasihat yo'nalishda yozilgan ertaklarni tiklash. Bu albatta, madaniyatlararo do'stlik munosabatlarini mustahkamlaydi.

Bolalikdan qarindoshchilik rishtalarini mustahkam saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Opa-singil munosabatlari ham bulardan mustasno emas. Aynan shu munosabatning salbiy nuqtalari haqida ikki xalq ertaklari sanalagan "Cindrella" va "Zumrad va Qimmat" ertaklari misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Xalq og'zaki ijodiga mansub "Zumrad va Qimmat" va Charles Perrault tomonidan yozilgan "Cindrella" ertaklarining lisoniy birliklarni madaniy jihatdan tahlil etish, avvalo, xalqlarning madaniy ma'rifiy qadryatlarni negizini ifodalaydigan farz amallar ko'rsatmasidan foydalanmasdan yoritib bo'lmaydi. Har bir ertak ma'lum bir mafkuraviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'sib kelayotgan avlod ma'naviy salohiyatini go'daklikdan takomillashtirishni adabiyotsiz amalga oshirilmaydi.

Asosiy qism: "Zumrad va Qimmat" va "Cindrella" ertaklaridagi salbiy qahramonlardan hisoblangan o'gay singillar misolida ikki xalq ertagidagi lingva-

madaniy birliklarni o'zaro taqqoslash orqali ularning urf-odat va qadryatlarni tahlil qilish mumkin.

Masalan: "When she had done her work, she used to go into the chimney-corner, and sit down among cinders and ashes, which made her commonly be called Cinderwench. But the youngest, who has not so rude and uncivil as the eldest, called her Cindrella. However, Cindrella, notwithstanding her apparel, was a hundred times handsomer than her sisters, though they were always dressed very richly." [Charles Perrault 2009:59].

“Cinderwench” antonamasiani tahlil qilinsa "wench"- yosh qiz, "cinder"- yongan ko'mir qoldiqlari. Shunda o'gay singlisi uni "kuloyim" nomi bilan atagan. Lekin tarbiyaliroq o'gay singlisi, Cindrella deb chaqirgan chunki "Cindrella" nomi ma'nosi loyiq bo'lganidan kamroq e'tibor yoki g'amxo'rlik ko'rsatiladigan kimdir degan tarjimaga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, o'gay singillar o'z konseptsiyalridan kelib chiqib Cindrellaga shu laqabni berishni to'g'ri deb bilishdi.

O'zbek Valq Ijodi mahsuli "Zumrad va Qimmat" ertagi ijobiy qahramoni "Zumrad" nomini salbiy qahramon bo'lmish o'gay singil Qimmat tomonidan "laqab" qilib qo'yilmagan. Balkim, Zumradning o'z ota-onasi tomonidan qo'yilgan ism hisoblanadi. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, O'zbek millati uchun kimgadir laqab qo'yish tarbiyasizlikdir. Har bir inson o'z ismi bilan murojaat qilinadi. Ertaklardagi salbiy qahramonlar ham ma'lum bir ma'naviy- ma'rifiy me'yor normalariga amal qilishgan.

Masalan: "One day, big news came to town. It was time for the Prince to find a bride. The King and Queen were going to have a ball! All of the young ladies in the land were invited to come to the ball. They were wild with joy! They would wear their most beautiful gown and fix their hair extra nice. Maybe the prince would like them!" [Charles Perrault 2009:60].

Quyidagi "Cindrella" ertagidan parchadan ayyonki, o'gay opa-singillarning hoxish istaklari va hayotiy qadryatlari ma'lum bir foniy muhabbatga tayangan. O'gay opa- singillar uchun shaxzodaga yoqish dunyodagi sharaflilardan hisoblanadi. Shaxzodani muhabbatini o'tkinchi zebu-ziyat va tashqi go'zallik bilan qozonish mumkin deb bilishadi. Bundanda ayanchliligi ular o'zalari uchun hayrli deb bilgan bir sharaflil voqeani yoki mukofotni mehnatkash opalari bilan bo'lishishni istamaydilar.

"Zumrad va Qimmat" ertagidagi Qimmat streotipi esa faqat dangasalikka asoslangan. "Zumrad aqilli, chiroyli va muloyim qiz ekan. Qimmat esa unga hech o'xshamas ekan. U tantiq, qo'pol va dangasa ekan. Kuni bo'yi ovqat yer, bo'lar-bo'lmasga urushar ekan." [O'zbek Xalq ertaklari to'plami 1990:29,30]. Ushbu ertakdan parchadan ma'lumki, salbiy qahramon sharq ertaklarida uzog'i bilan dangasalik va erkalik bilan kifoya qilinadi.

"Kitobxon bolalar ham hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun o'zlarini o'nglab olishga, mehnatni sevisga, ko'proq dars qilishga, kitob o'qishga intiladigan bo'ladilar. Axir Qimmat ishyoqmasligi, odobsizligi tufayli uni juda ko'p insonlar xush ko'rmaydi. Hatto, uning yurish-turish, xatti-harakati tabiatga sehrigar kampir ham ma'qul bo'lmaydi. Dangasaligi, kekkayganligi, qo'rs-qo'polligi o'zining boshiga yetadi." [Jumaboyev.2016:18]. Mamasoli Jumaboyevning quyidagi fikralridan ma'lumki, bizning xalq ijodi mahsullarida "yomoni ko'rib, yaxshini o'rgan" maqoliga tayangan holda, hatto salbiy qahramonlarning ham bolalar ongida muhim kasb etishini anglatilmoqda.

Masalan: "They were almost two days without eating, so much were they transported with joy. They broke above a dozen laces in trying to lace themselves tight, that they might have a fine, slender shape, and they were continually at their looking-glass." [Charles Perrault 2009:60].

O'gay opa- singillarning dunyodagi eng buyuk istaklariga erishish uchun ular tayyor bo'lgan martlik – ozuqasiz qolish. Ular shaxzodaga jozibali ko'rinish uchun hattoki, och qolishga ham tayyorlar.

"Kech kirganda Qimmat, xuddi Zumradga o'xshab, bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Adashganini sezibdi. Qorni juda ham ochiqipti. Ho'ng-ho'ng yiglasa ham, lekin uni ovutadigan odam topilmabdi. Faqat uning ro'parasida boyqushlar o'tirib olib, qorong'i, vahimali o'rmonlar haqida sayrarmish. U qo'rqib o'rmondan qocha boshlabdi. Qorong'i tushgan paytda sehrigar kampirning uyiga kirib boribdi." [Jumaboyev.2016:34,35]. Qimmat qorni ochip, vahimaga tushganida, oldiga qo'ygan maqsadi ham yodidan chiqib, uyga qaytishga ham tayyor bo'lgandi. U kampir uyi chiroqini ko'rib, uning uyiga boradi. Cindrella singillariga o'xshab, jozibali bo'lish uni hayoliga ham kelmagan. Chunki, hali turmushga chiqmagan qizning begona erkakni o'ziga rom qilishni o'ylashi Sharq qizlari uchun yot hisoblanadi.

Masalan: "Yarim kecha payti ekan, kampir bilan qiz eshik-elikni yopib, sandiqni ochishibdi-yu birdaniga "Voydod, qutqaringlar!", "Ajdar!", "Voydod!" deb baqirishibdi...

Sandiqda kattakon ikkita ajdar yotgan ekan. Qoqvosh kampir bilan uning urishqoq qizi dodlashib, uyni gir-gir aylanishibdi, qo'rqanlaridan qulflangan eshikni ochisholmabdi. Ikki ajdar kampir bilan qizni yutib, darchadan chiqib ketibdi. "Dod, voy!" degan ovozni eshitgan qo'ni-qo'shnilar eshikni buzib ichkari kiribdilar. Qarasalar, hech kim yo'q emish. Uyda yovuz kampirni ham, uning urishqoq qizini ham topolmabdilar. Shundan so'ng, oq ko'ngil Zumrad bilan ota ikkisi tinchgina yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar." [Jumaboyev.2016:37].

Qimmatning taqdiri bunday achinarli yakun topishida biz bu ertakni Sobiq Ittifoq tuzumi tufayli insonlar ruhiyatida shakillangan qahri qattimlik kayfiyatini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ertak va matallar bolalarni rahmdillikka undash kerak emasmi?

Bunda, xato qilib qo'ygan har bir farzand umidsizlikka yo'liqishi aniq. Aybini anglab tuzatish o'rniga, umidsizlikka tushadi.

Masalan: "And now her two sisters found her to be that beautiful lady they had seen at the ball. They threw themselves at her feet to beg pardon for all their ill treatment of her." [Charles Perrault 2009:64]. Zumrad va Qimmat ertagining xotimasidan farqli o'laroq, mashxur Cindrella ertagida esa kechirimlilik tushunchasini ilg'or suriladi. O'gay singillar Cindrelladan kechirim so'rab, xatto salbiy qahramonlar ham xatolarini tuzatishga imkon berilishi keraklini isbotlaydilar. Bunday mafkurani targ'ib qilish esa yorqin kelajak poydevoridir.

Masalan: "Lovely ladies, this gift is worth more than a fancy hairdo; to win a heart, to reach a happy ending, charm is the true gift of the fairies. Without it, one can achieve nothing; with it, everything." [Martin Hallett 2009:102] Barbara Karasek va Martin Hallett qarashlari Cindrella ertagi maqsadi ham "Happy ending" g'oyasi ekanligini takidlaydi. Bunday yondashuv nafaqat umid hissini kurtak otishiga sabab bo'ladi, balki, xatolar ustida ishlash uchun mativatsiya ham bo'la oladi. Ertak o'qiyotgan bola ruhiyatini tetiklashtiradi, kayfiyatini ko'taradi. Barcha ertak qahramonlariga xususan, salbiy qahramonlarga nisbatan ham ijobiy yondashadi.

Dinah Maria Craik: "Of course, in fairy tales, instruction is not expected; we find in them only the rude moral of virtue rewarded and vice punished. But children will soon discover for themselves that in real life all beautiful people are not good, nor all ugly ones wicked; that every elder sister is not ungenerous, nor every stepmother cruel. Nevertheless, without any direct appeal to conscience or morality, the Editor of this collection has been especially careful that there should be nothing in it which could really harm a child. Whatever its defects, the Fairy Book will not deserve one criticism, almost the sharpest that can be given to any work-"that it would have been better if the author had taken more pains" [Dinah Marian2007:06]

Dinah Marianing "Cindrella" ertagiga munosabatidan ko'rinib turibdiki, ertaklar ko'plab tanqidga uchrashi mumkin, shunga qaramasdan, undagi asl maqsad bolalar ongiga salbiy tasir yetkazmasligi kereligini takidlaydi. "Cindrella" ertagi ma'lum bir olimlar tomonidan tanqidlarga uchraganligi yaqqol ko'rinib turipti. Ayniqsa, har bir xaq tomonidan salbiy qahramonlarning e'tiborga ko'p tushishi va kuzatilishi aniq. Salbiy qahramonlar: Qimmat va o'gay singillar har doim yosh kitobxonlar uchun esda qolarli darajada, yuqori tasirga ega qahramonlar bo'lib qoladi. Bunda ertak o'qib berayotgan yokida ertakni yetkazuvchining voqelarga bo'lgan munosabati ham muhim kasb etmasdan qolmaydi.

Xulosa qismi:

Sharq va G'arb madaniyati bir-biridan tubdan farq qiladi. Tabiiyki, urf-odatlar, qadryat va ahloq tushunchalari bundan mustasno emas. Shundan ko'rinib turibdiki, Sharq farzandi tarbiyasiga G'arb ertaklari salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Hech bir millat

kelajakning duri bo'lmish farzandlar ongi va ruhiyatiga befarq emas. U hox salbiy qahramon bo'lsin hox ijobiy, bolalar taraqqiyoti va ravnaqi uchun xizmat qilish kerak. Ayniqsa, ertakalar boshidan ota-onalar tomonidan to'g'ri talqinda namoyon qilinsa, maqsadga muvofiq boladi. Binobarin, har bir oila boshlari ertaklarni tahlil qilayotganda, o'z ma'naviy-madaniy qadryatlari orqali tushunib yetadi. Hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri, o'sib kelayotgan avlod uchun diniy qadryatlarga mutanosib ravishda ertak tadbiq etish. Zero, ertaklar farzand tarbiyasi va kamoli uchun muhim kasb etadi. Qanday xalq ertagi bo'lishidan qat'iy nazar muhimi, imon va e'tiqod mustahkamlanishiga xizmat qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashliman, D.L. Folk and Fairy Tales: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
2. Bacchilega, Cristina. Postmodern Fairy Tales: Gender and Narrative Strategies. Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press, 1997
3. Charles Perrault "Cindrella Bedtime Story". "The Blue Fairy Book"1889.John.
4. Gorkiy M. Adabiyot haqida. T.: O'zadabiynashr, 1962, 264-265-b.
5. Jo'rayev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlan. O'zTA, 1996, 5-son, 28-34-b.
6. Jumaboyev. M. "Bolalar adabiyoti va falklor". Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2016. 18-bet.
7. Madayev. O. O'zbek Xalq O'g'zaki Ijodi. Mumtoz. 2010
8. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklori. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam g'armasi nashriyoti Toshkent 2006 (18 bet).
9. Martin Hallett, Barbara Karasek Folk and Fairy Tales.2009 Broadview
10. McGlathery, James M. Fairy Tale Romance: The Grimms, Basile, and Perrault. Urbana, IL: University of Illinois Press, 1991
11. Michel S. Newton. Into the Fairy Hill. Paperback. 2022
12. Miss Mulock. "The Fairy Book". 2014. Gutenber.org
13. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T .,1995, 15- b
14. O'zbek Xalq ertaklari to'plami "Zumrad va Qimmat". "O'zbekiston" nashriyoti. 1990.
15. O'zbekiston Milly ensiklopediyasi. Xalq og'zaki ijodi turkumidan.
16. Qanayev. O. O'zbek xalq ertaklari ZUMRAD VA QIMMAT. "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2020
17. Sarimsoqov. M. O'zbek Xalq Poetik Ijodi. O'qtuvchi. 1990.
18. Thackray Bucne. Fairy Tales, Their Origin and Meaning. 2010 The Project Gutenberg EBook of Fairy Tales. (82 bet)
19. Tully, Carol, ed. Romantic Fairy Tales. Harmondsworth: Penguin, 2000
20. Иоганна Вольфганга Гёте. "Западно-восточный диван". 1819. "Замечаниями и комментариями"